

## FANLARARO BOG‘LANISHLARDANFOYDALANISH ORQALITA‘LIMiy KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH

**Radjabov Rashid Farxadovich**

*Texnologik ta‘lim kafedrası dots.v.b.*

**Matnazarova Shodiya Ikromovna**

*Texnologik ta‘lim kafedrası magistranti*

**Annotatsiya:** *Maqola O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim jarayoniga tatbtq qilingan Davlat ta‘lim standartlarini Texnologiya ta‘limi predmeti mashg‘ulotlarida amaliy qo‘llash xususiyatlariga qaratilgan. Xususan texnologiya fan predmetini o‘qitishga kompetensiyaviy yondoshuvning tatbiq qilinishi asoslari ko‘rib chiqilgan. Mashg‘ulotlar jarayonida Texnologiya fan predmeti bilan boshqa fan predmetlari o‘rtasidagi predmetlari aloqadorlikni amalga oshirish asosida o‘quvchilarning ta‘limiy kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyatlari tadqiq qilingan.*

**Kalit so‘zlar:** *Kompetensiya, davlat ta‘lim standarti, fanlararo bog‘lanishlar, fan predmetlari, qonun, qoida, hodisalar, amalda qo‘llash.*

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng barcha yo‘nalishlar kabi ta‘lim sahasida ham islohotlar amalga oshirila boshlandi. Islohotlarni o‘tkazishning zarurligi shundaki , mustaqil Respublikamiz jahon hamjamiyatida o‘z o‘rnini topish, ilmiy-texnika rivojlanishidan orqada qolmasligi uchun jahon andozalariga mos keladigan salohiyatli kadrlar tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Shunga ko‘ra “Ta‘lim to‘g‘risida” gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” ishlab chiqildi.. Umumiy o‘rta ta‘lim, o‘rta maxsus , kasb-hunar ta‘limi va Oliy ta‘limda o‘rganiladigan fanlar orasida uzviylik va uzluksizlikni ta‘minlash maqsadida barcha fanlar bo‘yicha DTS ishlab chiqildi, o‘quv dasturlari asosida yaratilgan darsliklar tajriba –sinovdan o‘tkazilib , hayotga tatbiq etildi. Bunda albatta, ta‘lim-tarbiya sohasidagi ilg‘or mamlakatlarning ushbu tizimi bo‘yicha olib borilayotgan tajribalari ham o‘rganildi. Shu bilan birga ayrim yo‘nalishlarda samarasi yuqori bo‘lmagan holatlar mavjudligi aniqlandi. Jumladan, chet tillarni o‘qitish an‘anaviy ravishda, ilg‘or axborot kommunikatsion va media –texnologiyalarni qo‘llamasdan o‘qitilayotgaligi , bu esa zamon talabiga javob bermasligi O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda “Chet tillarini o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” gi PP-1875 raqamli qarorida o‘z aksini topdi. SHunga ko‘ra , mazkur qaror asosida tadbirlar rejsi ishlanib , unda mavjud o‘quv rejasi va dasturlarni “CHet tillarni egallashning Umumevropa kompetensiyasi” ga mos ravishda qayta ishlanishi belgilab berildi.<sup>23</sup> Xo‘sh kompetensiyaviy yondoshuv “ o‘zi nima?

<sup>23</sup><https://www.lex.uz> Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президентининг 2012 йил 10 декабрдаги “Чет тилларини ўрганиш тизимини янада такомиллаштириш тўғрисида” ги ПП-1875 рақамли қарори

“Competence “ so‘zi “to compete” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “musobaqalashmoq”, “raqobatlashmoq”, “bellashmoq” degan ma‘noni beradi. So‘zma-so‘z tarjima qilganda , musobaqalashishga layoqatlilik” ma‘nosida keladi. So‘zma-so‘z tarjima qilganda, “musobaqalashishga layoqatlilik” ma‘nosida keladi. O‘tgan asr oxirida o‘tgan ta‘lim bo‘yicha xalqaro kongressda pedagog – olim Jak Delorf ta‘lim tayanadigan to‘rtta ustunni ta‘riflab bergan edi: - bu bilishni o‘rganish, bajarishni o‘rganish, birgalikda yashashni o‘rganish. 1996 yilning 27-30 mart kunlari Bern shahrida Evropa Kengashi dasturi bo‘yicha o‘tkazilgan simpoziumda , ta‘limni isloh qilish uchun eng muhim narsa tayanch kompetensiyalarni belgilab olish kerak ekanligini , bu esa o‘z navbatida ta‘lim oluvchilarning muvaffaqiyatli ravishda ishlay olishlari va so‘ngra oliy ta‘lim olishlari uchun zarurligi haqida masala qo‘yiladi. Kompetensiyalarni ishlab chiqaruvchi asosiy mutaxassislardan biri V.Xutxamer “Evropa yoshlari ega bo‘lishi kerak bo‘lgan” beshta tayanch kompetensiyalarning ta‘riflarini keltiradi. Bu kompetensiyalar quyidagilardan iborat:

- Ijtimoiy va siyosiy kompetensiyalar: jamoada qaror qilishda qatnashish va u haqda javobgarlikni his etish;

- ko‘p madaniyatli jamiyat hayoti bilan bog‘langan kompetensiyalar: ta‘lim orqali yoshlarga madaniyatlararo kompetensiyalarni, ya‘ni boshqalarni hurmat qilish, boshqa madaniyatga, tilga va dinga ega bo‘lgan insonlar bilan birgalikda yashay olish kabi zaruriy xislatlarni singdirish kerak;

- og‘zaki va yozma muloqatga kirishish bilan bog‘liq kompetensiyalar: Bunda o‘z ona tilidan tashqari yana boshqa tilni bilish ham muhimligi ko‘zda tutiladi;

- jamiyatni axborotlashtirish bilan bog‘liq kompetensiyalar: ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilayotgan axborotlarga nisbatan tanqidiy munosabatda bo‘lish, uning kuchli va kuchsiz tomonlarini ajrata bilish uchun axborot texnologiyalarini bilish;

- kasbiy va ijtimoiy hayot taqozosiga ko‘ra butun hayoti davomida uzluksiz oravishda o‘qib o‘rganib borish.

2006 yil 18 dekabrda Evropa parlamenti va Kengashi uzluksiz ta‘lim uchun quyidagi tayanch kompetensiyalarni tavsiya qildi:

1. O‘z ona tilida muloqat qila olish;
2. CHet tilida muloqat qila olish;
3. Matematik kompetentlik hamda fan va texnika sohasidagi asosiy kompetensiyalar;
4. Raqamli kompetentlik;
5. O‘qishni o‘rganish;
6. Ijtimoiy va fuqorolik kompetensiyasi;
7. Tadbirkorlik va tashabbuskorlik tuyg‘usi;
8. Madaniyatdan xabardor bo‘lish va uni ifodalash.

Hozirgi paytda ko‘pgina Evropa mamlakatlari ushbu kompetensiyalar asosida ta‘lim tizimini yaratgan. Britaniyada oltita tayanch kompetensiyalar asos sifatida olingan. Asosiy kompetensiyalar:

- muloqatga kirishish;
- hisob-kitoblar yuritish;
- axborot savodxonligi.

AQSHda 1980 yillarda ta'lim standartlari ishlatila boshlandi. Ma'lumki AQSH da ta'lim tizimi markazlashtirilmagan. SHunga ko'ra, ta'limga doir ko'pgina masalalar har bir shtat tomonidan hal qilinadi. Germaniyada 1970 yilda o'tkazilgan tadqiqotlarning butun mamlakat bo'yicha past natija ko'rsatganidan keyin ta'lim standartlari va dasturlari ishlab chiqila boshlandi. Nemislarning standartida ta'lim tizimida asosiy e'tibor o'quvchilarga tayanch malakalar va kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib o'quv dasturi ortiqcha bilimlar bilan to'ldirib tashlanmagan.. Germaniyada 2004 yildan boshlab maktab ta'lim standartlari majburiy hisoblanadi. Rossiya ta'lim standartlari 1992 yilda ishlab chiqildi, 1993 yildan vaqtinchalik ta'lim stndartlari ishlab chiqila boshlandi. 2000 yildan boshlab davlat ta'lim standartlarinigng birinchi avlodi (umumiy ta'lim va ikkinchi avlod (oliy ta'lim uchun) ishlab chiqila boshlandi.

SHu asosda chet mamlakatlar tajribalari o'rganilgan holda O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining 2017 yilda 187-son qarori qabul qilindi.<sup>24</sup> Qarorga ko'ra yangi Davlat ta'lim standartlari 2017 yildan boshlab bosqichma-bosqich amaliyotga kiritiladigan bo'ldi. Ushbu xujjatda kompetensiya so'ziga quyidagicha ta'rif keltirilgan. "Kompetensiya – mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati" deyilgan. Ushbu ta'rifdan kelib chiqadigan bo'lsak. Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitilayotgan fanlarning amaliy yo'nalganligini va o'quvchi tomonidan amalda qo'llay olish ko'nikma va malakalarini shakllantirishni kuchaytirish zarurligini keltirib chiqaradi. Bizningcha ushbu fanga oid kompetensiyalarni talablarini bajarishda fanlararo bog'lanishlarning qo'llanishini samaradorligini oshirish zarur bo'ladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tabiiy va aniq fanlardan o'rganiladigan qonun va hodisalarning hayotda qo'llanishini o'rgatishda va ulardan amaliy foydalan olishda texnologiya fan predmeti bilan bog'langan holda olib borilishi o'quvchilarning kompetentligining oshiradi. Masalan Fizika fan predmetida o'rganiladigan ishqalanish xodisasi bilan Texnologiya fan predmetida o'rganiladigan materiallarga qo'lda va dastgohlarda kesib ishlov berishga oid mavzular tushuntirilganda yaxshi natija beradi. Ma'lumki materiallarga kesib ishlov berish natijastda keskich va kesilayotgan materialning qizishiga asosan ishqalanish xodisasi sabab bo'ladi. Bu esa ishlov berish sifatiga salbiy ta'sir o'tkazadi. Buning oldini olish uchun to'g'ri kesish qoidalariga amal qilish va dasgohlarda moylash –sovtish suyuqliklaridan foydalanish zarurligi to'g'risida o'quvchilarda dastlabki tushuncha bilimlarni o'zlashtirilishiga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Har qanday mehnat operatsiyasini bajarish va o'quvchilarda zaruriy mehnat ko'nikma va malakalarini shakllantirishda amaliy mashqlar katta ahamiyat kasb etadi. Har qanday o'quvchining harkatlari va u ishlatadigan moslama va

<sup>24</sup><https://giu.uz> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар маҳкамасининг “Умумий ўрта ва ўрта махсус , касб-хунар...давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида”ги 187- сон қарори 1017 йил 6-апрел

dastgohlarning ishlashi fizikaning mexanika bo'limi mavzularida o'rganiladigan qonunlar va hodisalarga asoslanadi. Fizika fani predmetining "Moddaning agregat xolatlari" va "Melekulyar –kinetik nazariya" sig a oid mavzulari bilan Texnologiya faning "Pazandachilikda ishlatiladigan sovutgich va muzlatgich, termos, mikroto'liqlik elektrpechlarning tuzilishi va ahamiyati, foydalanish texnologiyasi" mavzularini o'rganishda bog'lanishlar orqali ta'lim jarayonini olib borish o'quvchilarda o'rganilayotgan har bir qonun va hodisalarning hayotda va texnik ob'ektlarda amalda qo'llanishiga ishonch hosil qiladilar. Bu esa ularga har bir fanning ularning kelgusi maishiy va kasbiy faoliyatida asqotishini anglatadi. Matematika fanidan olgan hisoblashga oid bilim ko'nikma va malakalarni mehnat ta'limi mavzularini o'rgatishda qo'llanishi ham yaxshi natijalarga olib keladi. Kimyo fanidan olgan bilim va ko'nima va malakalarindan mehnat ta'limi mashg'ulotlarida yog'och, metallar va polimer materiallarning tarkibi va tuzilishini, xususiyatlarini o'rganishda foydalanish o'quvchilarda fanlarni o'rganishda ularning d'knyoqarashini o'sishiga kompleks har taraflama bilimlarga ega bo'lishiga olib keladi. Endi tayanch kompeensiyalarni rivojlantirishga kelsak bu erda o'quvchilar bilan ishlashda o'qituvchining pedagogika psixologiya va axborot texnologiyalaridan chuqur amaliy bilimga ega bo'lishi talab qilinadi. Standartning matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasida "maktabga kelib ketadigan vaqtini bilish"... "kundalik rejalarni tuza olish" ... isrof va tejamkorlikning ma'nosini tushinish" o'quvchilarda rejalashtirish, loyihalash va iqtisodga oid tushuncha va bilimlarga ega bo'lishni talab qiladi.

SHuning uchun ham texnologiya fan predmeti o'qituvchisi boshqa tabiiy va aniq fan o'qituvchilari bilan kelishgan holda predmetlararo aloqadorlik rejasini tuzib chiqishi va uni mazmunini tarkib topdirishi kerak bo'ladi. Bunday kompetensiyalarni shakllantirishda standart talablariga javob beradigan o'quvchilarni o'qitib tarbiyalash o'z navbatida bo'lg'usi fan o'qituvchilarini va texnologiya ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda ham yangicha yondoshuvlarni qo'llash talabini qo'yimoqda. Bizning fikrimizcha yuqorida aytganimizdek bo'lg'usi fan o'qituvchilarini fanlararo bog'lanishlardan samarali foydalanishga, o'quvchilarga o'qitilayotgan fanlarning amaliy yo'nalganligini kengroq yoritishga, bilimlarni qo'llash va amalda foydalanishga oid materiallar bilan qurollantirishga urg'u berilishini lozim deb hisoblaymiz.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. SHavkat Mirziyoev Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent : : «O‘zbekiston» NMIU, 2017. -168 b.
2. Umumiy o‘rta ta‘limning davlat ta‘lim standartlari va o‘quv dasturi. - T 2017y. – 99 bet.
3. Атутов П.Р. и др. Связь трудового обучения с основами наук – М.: Просвещение. 1983г. -128 стр.
- 4.Максимова В.Н. Межпредметные связи в процессе обучения – М.: Просвещение, 1988г. -192 стр.
5. Muslimov N.A. va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O‘quv-metodik qo‘llanma.-T.: “Sano-standart” , 2015.- 120 b.
- 6.Muslimov N.A. , Abdullaeva K.M., Qo‘ysinov O.A., Gaipova N.S.,  
Bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik kompetentligini shakllantirish nazariyasi va texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 7 b.t.
7. Усова А.В. и др. Связь преподавания физики в школе с сельскохозяйственным производством. –М.: Просвещение, 1976.-179 стр.